


1. Yuza turlari



Rasmlarni o'rganing. Qaysi rasmda tepaliklar, tog'lar, jarliklar va tekisliklar tasvirlangan? Ularni o'z so'zlaringiz bilan ayting.



Sxemani o'rganing. Atamalardan to'g'ri foydalanib, rasmni izohlang.



Odatda, tog'larning yakka holda emas, balki yonma-yon guruh bo'lib joylashganligini ko'rish mumkin. Bunday zanjir ko'rinishidagi tog'lar **tizma tog'** deb ataladi. Agar bir-birining yonida bir nechta kichik va katta tog'lar joylashgan bo'lsa, ular **tog' tizmasi** deb ataladi.



O'zbekistonda joylashgan eng katta tizma tog' va tog' tizmalarining nomini yozing.

2. Tog'larning boyligi

Tyan-Shan tog' tizmasi ulkan tog' tizmalaridan biri hisoblanadi. Bu tog' tizmasi shunchalik kattaki, u bir vaqtning o'zida bir nechta davlatlar hududini egallaydi. O'zbekistondagi tog'lar bu tog' tizmasining bir qismi bo'lib, u butun tog' tizmasi hududining beshdan bir qismiga teng.

O'zbekiston tog'lari o'simlik va hayvonot dunyosiga boy. Ko'pgina ko'chib yuruvchi qushlar tog'larda yashashni afzal ko'radilar. Tyan-Shan tog'larida qor qoplani, arxar – tog' echkisi, oq panjali ayiq kabi noyob hayvonlar yashaydi. Tog'larda baland o'sadigan ignabargli o'rmonlar havoni tozalaydi va uni shifobaxsh qiladi.



Rasmlar yordamida tog'lar qanday foyda keltirishi mumkinligini ayting.




“Tog' boyliklari” mental xaritasini to'ldiring.

3. Tog'lar haqida qiziqarli ma'lumotlar




Tog'lardagi iqlim tekislikdagi iqlimdan keskin farq qiladi. Tog'da qanchalik yuqoriga ko'tarilgan sari, havo harorati shunchalik sovib boradi. Shuning uchun baland tog'larning cho'qqilaridagi muzliklar deyarli erimaydi. Ko'pincha baland tog'larda chang'i va chanada uchishni sevuvchilar uchun qor maydonchalari quriladi. Ammo shuni yodda tutish kerakki, qor Quyosh nurini o'zida juda yaxshi aks ettiradi. Tog'larda qishning qorli kunlarida ham yorqin quyosh ostida xuddi yozdagi kabi kuyish mumkin.

Tog'larda tekisliklarga qaraganda yog'ingarchilik ko'proq bo'ladi. Bulutlarni quvayotgan shamol baland tog' tizmalariga uriladi va uning harakati sekinlashadi. Natijada, bulutlar bir joyda to'planib, kuchli qor yoki yomg'ir yog'ishiga sabab bo'ladi. Keyin bu qor yoki yomg'ir suvlari irmoqlarga aylanib, vodiylarga oqib tushadi va daryolarga quyiladi.



Tog' turizmi – nafaqat dam olish turi, balki u sport turi ham hisoblanadi. Ulardan biri bu – **alpinizm** – tog' cho'qqilariga chiqish. Alpinistlarga maxsus asbob-anjomlar zarur, chunki bu sport turi juda xavflidir. Haqiqiy alpinist nihoyatda ehtiyotkor, puxta va har bir mayda detallargacha diqqat-e'tiborli bo'lishi kerak. Chunki o'zining hamda jamoadoshlarining hayoti va salomatligi, uning qilgan har bir harakatiga bog'liq.



Tog'dagi o'tloqlar dorivor o'tlar va ko'plab gulli o'simliklarga boy. Bundan tashqari, tog'dagi havo tekislikdagi havoga qaraganda tozaroq. Shuning uchun, asalarichilar xushbo'y va shifobaxsh asal olish maqsadida, asalari uyalarini baland tog'larga o'rnatadilar.

Tog'li o'tloqlardagi o'tlar tekislikdagiga qaraganda sersuv va shirali. Bu – salqin havo va ko'p yog'ingarchilikning natijasi. Fermerlar bahor va yozda qo'ylarini o'tlatish uchun tog'larga haydab yuboradilar. Tog'larda tekislikdagi kabi hosil maydonlari mavjud emas, shuning uchun u yerda hayvonlarni bemaolol o'tlatish mumkin.



Tog'larda shalfey, yo'ng'ichqa, qizilpoycha va shu kabi ko'plab foydali o'tlar o'sadi. Shuningdek, u yerda na'matak, maymunjon va chakanda singari foydali vitaminlarga boy bo'lgan mevali butalarni ham uchratish mumkin.



Dorivor o'simliklarning nomini yozing.



Tog'larda o'zini qanday tutish kerakligini eslang. Uni daftaringizga yozing.



Dorivor o'simliklardan biri haqida ma'lumot tayyorlang.